«TASDIQLAYMAN»

Bosh direktorning marketing
va sotuvlar bo'yich o'rinbosari
«UMS» MChJ

_____L.Yu. Filatova

«___» _____2025

TEXNIK TOPSHIRIQ

«UMS» MChJga tegishli reklama konstruktsiyasini (LED ekran 3x6 m) Jizzax shahrida o'rnatish va yig'ish xizmatlarini xarid qilish bo'yicha

"UMS" MChJ ehtiyojlari uchun

Toshkent – 2025

Mundarija:

1. Umumiy ma'lumotlar
   1.1 Bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) nomi
   1.2 Ishlar (xizmatlar)ni xarid qilish maqsadi
   1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyiha uchun asos
   1.4 Ishlar va xizmatlar ro'yxati
2. Ishlar bajariladigan joy (xizmatlar ko'rsatiladigan joy). Qo'llanish sohasi
3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar
4. Ishlarni bajarish muddati (xizmatlar ko'rsatish muddati)
5. Xavfsizlik talablari
6. Ishlarni topshirish va qabul qilish qoidalari
7. Kafolat hajmi va/yoki muddati bo'yicha talablar
8. Qo'shimcha talablar
9. Ilovalar ro'yxati

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1. Bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) nomi

Toshkent shahridan Jizzax shahriga yetkazib berishni ta'minlagan holda, Jizzax shahrida joylashgan "UMS" MChJga tegishli 3x6 m o'lchamdagi LED reklama ekranini o'rnatish ishlari.

1.2. Ishlar (xizmatlar)ni xarid qilish maqsadi

Kompaniya reklama roliklarini namoyish etish.

1.3. Loyihani amalga oshirish uchun asos

LED ekranlarini o'rnatish.

1.4. Ishlar va xizmatlar ro'yxati

- Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan reklama metall konstruktsiyasini (o'lchamlari taxminan 7,00x9,00x1,00 m, og'irligi taxminan 2 tonna) va komplekt qismlarini (LED modullar, sovutish tizimi va h.k.) Toshkent shahridan Jizzax shahrigacha (manzil: Jizzax sh., Sh. Rashidov ko'chasi, "UMS" ofisi) yetkazib berishni ta'minlash.
- Jizzax sh., Sh. Rashidov ko'chasidagi "UMS" ofisi hududida reklama konstruktsiyasini o'rnatish ishlari:
    - 5 m³ hajmli armaturalangan poydevor tayyorlash (armatura setkasi, beton),
    - reklama metall konstruktsiyasini o'rnatish,
    - konstruktsiyani alyuminiy kompozit panellar bilan qoplash (rang Buyurtmachi bilan kelishiladi),
    - Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan komplekt qismlarni (LED modullar, konditsioner, freon bilan to'ldirishni o'z ichiga oladi) o'rnatish,
    - LED ekranining to'liq ishlashini ta'minlash bo'yicha ishlar (shleyflar va kuch kabelarini almashtirish, modullarni ulash, video-kontrollerni ulash va boshqalar),
    - reklama konstruktsiyasi ichida yoritish chiroqlarini o'rnatish (kalit bilan).
    -
- Poydevor (fundament) tayyorlash, konstruktsiyani qoplash, hamda barcha boshqa sarf materiallari va zarur asbob-uskunalar Pudratchi tomonidan mustaqil ravishda xarid qilinadi.

2. Ishlar bajariladigan joy (xizmatlar ko'rsatiladigan joy)

Jizzax shahri, Sh. Rashidov ko'chasi (mo'ljal : "UMS" ofisi).

3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

- Ish tajribasiga ega bo'lish, shunga o'xshash ishlarni bajarganlik.

4. Ishlarni bajarish muddati (xizmatlar ko'rsatish muddati)

Ishlarni bajarish muddati – 14 ish kuni ichida.

5. Xavfsizlik talablari

Konstruktsiyani va uskunalarni o'rnatish ishlari texnika xavfsizligi qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Balandlikdagi ishlar maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar tomonidan, xavfsiz ish sharoitlarini ta'minlovchi uskunalar yordamida bajarilishi kerak.

Ish jarayonida ish joyi maxsus to'siqlar bilan o'ralgan bo'lishi shart.

Har bir ish kuni tugagandan so'ng, shuningdek ishlar to'liq yakunlangach, Pudratchi ish joyini tozalashi, chiqindilarni olib chiqishi va ish jarayonida paydo bo'lgan barcha izlarni bartaraf etishi shart.

Buyurtmachi ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmaguncha ish natijalarini qabul

qilmaslik huquqiga ega.
Ishlar bajarilayotgan paytda xodimlarning xavfsizligi uchun javobgarlik Pudratchiga yuklanadi.

6. Ishlarni topshirish va qabul qilish qoidalari
Ishlar bajarilishi jarayonida va yakunida Pudratchi tomonidan barcha zarur hujjatlar rasmiylashtirilib, Buyurtmachiga taqdim etilishi lozim.

7. Kafolat muddati va shartlari
Ish natijalariga kamida 12 oylik kafolat beriladi.
Agar kafolat davrida nosozliklar aniqlansa, Buyurtmachi bu haqda Pudratchini og'zaki yoki yozma ravishda xabardor qiladi.
Buyurtmachidan xabarnoma olingach, Pudratchi 48 soat ichida joyni ko'zdan kechirishi va nosozliklarni bartaraf etish ishlarini bajarishi shart.

8. Qo'shimcha talablar
Barcha yuklash va tushirish ishlari Pudratchining kuchi va hisobidan amalga oshiriladi.
Buyurtmachidan qabul qilingan materiallarning butligi va saqlanishi uchun, ishlar to'liq yakunlangunga qadar, Pudratchi javobgar hisoblanadi.

9. Ilovalar ro'yxati

№	Ilova nomi	Sahifa raqami / Varaqlar soni
1	Reklama konstruktsiyasi eskizi	1

Tuzuvchi:

Reklama ishlab chiqarish bo'limi eksperti _____ Yu.N. Yuldashev

Kelishilgan:

Reklama ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i _____ M.B. Mirkarimov

Marketing bo'yicha director _____ Ye.V. Lim